

AXSIKENT TANGALARI

Muallif: **To'ramirzayev Rustamjon**

Murojat uchun telefon: [93 493 24 76](tel:934932476)

Annotatsiya:

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining qadimiy poytaxti — Axsikent shahrida pul muomalasining shakllanishi va rivojlanish tarixi arxeologik hamda numizmatik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Axsikent zarbxonasida antik davrdan boshlab Temuriylar davrigacha bo'lgan vaqt oralig'ida zarb etilgan oltin, kumush va mis tangalarning o'ziga xos xususiyatlari ko'rib chiqiladi. Ayniqsa, shaharning dunyoga mashhur metallurgiya markazi ekanligi, xususan, "pota po'lati" texnologiyasining tanga zarb qilish asboblari sifatiga ko'rsatgan ta'siri alohida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Axsikent, numizmatika, dirham, zarbxona, metallurgiya, pota po'lati, Farg'ona tarixi, Buyuk Ipak yo'li, avers, revers, gurt, bronza.

Axsikent O'zbekistonning qadimiy shaharlaridan biridir. Axsikent O'zbekiston Respublikasi Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi Shahand qishlog'ida joylashgan. Axsikent Sirdaryoning o'ng sohilida joylashganligi tufayli qadimdan o'troq hayot uchun qulay hudud bo'lgan. Eng rivoj topgan pallasida Axsikentning hududi 200 gektardan oshiq bo'lgan lekin hozirgi kunda 70 gektarga yaqin maydonigina saqlanib qolgan. Arxeolog olimlarning fikriga ko'ra u miloddan avvalgi III-II asrda vujudga kelgan va IX-X asrlarda Farg'ona vodiysining poytaxti bo'lgan. Shuningdek, Axsikent Zahriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida tasvirlangan shaharlardan biri hisoblanadi.

Axsikent yodgorligini arxeologik jihatdan o'rganish uzoq va boy tarixga ega. Bu shahar nafaqat Farg'ona vodiysining, balki butun O'rta Osiyoning eng muhim strategik nuqtalaridan biri bo'lgani sababli, XIX asr oxiridan boshlab olimlar e'tiborini tortib kelgan.

O'rganilish tarixini quyidagi bosqichlarga bo'lish mumkin:

1. Dastlabki qidiruvlar (XIX asr oxiri – XX asr boshi) - bu davrda tadqiqotlar asosan havaskorlik va umumiy tavsif xarakterida bo‘lgan. V.V. Bartold (1893–1894) - mashhur sharqshunos olim Axsikent xarobalarini ko‘zdan kechirib, uning yozma manbalardagi tavsifini tarixiy manzara bilan solishtirgan. N.N. Pantusov 1880-yillarda yodgorlikda dastlabki kichik qazishmalarni o‘tkazib, bir qancha ashyolarni Rossiya muzeylariga yuborgan.

2. Rejali tadqiqotlarning boshlanishi (1930–1960-yillar) - bu davrda professional arxeologlar guruhlarini ish boshladi. M.E. Masson (1939): Katta Farg‘ona kanali qurilishi munosabati bilan olib borilgan ekspeditsiya davomida Axsikentning topografik rejasi chizildi va uning yoshi antik davrga borib taqalishi taxmin qilindi. V.A. Bulatova 1950-60 yillarda shaharning turli qatlamlarini o‘rganib, uning rivojlanish bosqichlarini aniqladi.

3. Kompleks ekspeditsiyalar davri (1970–1990-yillar). Axsikentni o‘rganishda eng sermahsul davr hisoblanadi. I. Ahrorov va Farg‘ona arxeologiya otryadi ko‘p yillik qazishmalar natijasida shaharning mudofaa devorlari, turar-joy dahalari va hunarmandchilik ustaxonalari ochildi. Aynan shu davrda Axsikentning damashq po‘lati ishlab chiqarish markazi bo‘lgani ilmiy isbotini topdi. Shahar arkidan saroy qoldiqlari va VIII-IX asrlarga oid devoriy rasmlar parchalari topildi.

4. Mustaqillik davri va xalqaro tadqiqotlar (2000-yillardan hozirgacha). Professor A. Anarboyev ko‘p yillardan buyon Axsikentda muntazam qazishma ishlarini olib bormoqda. Uning rahbarligida shaharning qadimiy poydevori miloddan avvalgi III-II asrlarga oidligi aniqlandi. Aynan shu tadqiqotlar davomida Axsikent hududidan juda ham ko‘plab tangalar topilgan. Yuqorida aytilganidek shahar miloddan avvalgi III asrda tashkil qilingan va u Buyuk Ipak yo‘lining karvonlari uchun to‘xtash joyi sifatida ham xizmat qilgan. Buyuk Ipak yo‘lining Axsikent hududidan o‘tishi uning ravnaqida muhim o‘rin egallaydi. Shahar muhim savdo markazi sifatida ham xizmat qilgan. Hammaga ma‘lumki, savdo rivojlangan hududda albatta tovar-pul munosabatlari ham rivojlangan bo‘ladi. Shu sababli Axsikent shahrida shahar hokimlari zarb qilingan tangalardan tashqari boshqa shahar va davlatlarning tangalari ham faol tarzda ishlatilgan. Tanganing old va orqa tomoni bo‘ladi

va har ikki tomonida turli rasmlar hamda yozuvlar joylashadi. Ushbu tasvir va yozuvlar tushirilgan qism tanga maydoni deb ataladi. Odatda bu maydon bezakli chiziqlar, nuqtalar yoki halqasimon hoshya bilan o‘rab chiqiladi. Tanganing cheti esa gurt deyiladi.

Tangadagi rasm va yozuvlar uning qaysi davlat, shohlik, xonlik yoki shahar tomonidan zarb qilinganini bildiradi. Bu belgilar hokimiyatning muhriga o‘xshab, muomalaga chiqarilgan tanga haqiqiy va ishonchli ekanini ko‘rsatadi. Chunki tanga metall buyum bo‘lib, uning vazni va sof metaldan yasalganligi davlat tomonidan kafolatlanadi. Bu esa qalbaki pul yasash va firibgarlikning oldini olish uchun muhim hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, tanga — ma’lum belgilarga ega, aniq og‘irlik va sifat bilan tayyorlangan metall to‘lov vositasidir. Iqtisodiy nuqtayi nazardan qaraganda esa u barcha tovarlarni sotib olish imkonini beradigan, istalgan vaqtda har qanday buyumga aylantirilishi mumkin bo‘lgan universal vosita hisoblanadi.

Axsikentda ilk kumush tangalar miloddan avvalgi III asrda chiqarilgan. Uning yuza qismi - aversiga podshoning surati, orqa tomoni - reversiga esa tasvirlar solingan yoki podsholarning nomi yozilib, tangasi tushirilgan. Axsikent hududida tangalar miloddan avvalgi III asrdan milodiy 1621-yilgi zilzilaga qadar bo‘lgan davrda uchraydi. Xususan Somoniylar, Qoraxoniylar va Temuriylar davri tangalari ko‘plab topilgan. Tangalarning xom-ashyosiga keladigan bo‘lsak, ular asosan oltin, kumush va misdan yasalgan. Oltin tangalar asosan tashqi savdoda ishlatilgan bo‘lsa, ichki savdoda kumush va mis tangalardan foydalanilgan.

Shuningdek, Axsikent tangalari - O‘rta Osiyo numizmatikasida muhim o‘rin tutadigan tarixiy manbalardan biridir. Tangalar moddiy manbalar qatoriga kiradi va ular orqali biz O‘rta asrlardagi Farg‘ona vodiysi tarixini chuqurroq o‘rganishimiz mumkin. Masalan, tangalar orqali biz davlatning iqtisodiy va siyosiy ahvoli haqida umumiy tushunchalar olishimiz mumkin. Axsikent tangalari asosan arab yozuvida bitilgan bo‘lib, ularda hukumdor yoki sulola nomi, Axsikentda zarb qilindi degan mazmundagi yozuv va Islomiy shiorlar (masalan, “Allohdan o‘zga iloh yo‘q) uchraydi. Bu yozuvlar Axsikentda

rasmiy zarbxona bo'lganligini isbotlaydi. Shuningdek, tangadagi yozuvlarda hukumdor ismi va zarb qilingan joyi ko'rsatilganligi sababli, ular aniq davrni belgilash imkonini beradi. Axsikent tangalarining boshqa hududlardan topilishi shahar savdosining keng geografiyaga ega bo'lganligini isbotlaydi.

Axsikentda metallurgiya va tanga zarb qilish jarayoni o'z davrining eng ilg'or texnologiyalari asosida tashkil etilgan. Ayniqsa, shaharning "po'lat markazi" sifatidagi shuhrati tanga zarb qilish sifatiga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan.

Tanga zarb qilishdagi birinchi masala bu unga xomashyo topishdir. Axsikent zarbxonasi uchun metallar asosan Farg'ona vodiysi va unga tutash tog'li hududlardan (masalan, Chatqol-Qurama tog'laridagi konlardan) keltirilgan. Kumush - dirhamlar zarb qilish uchun ishlatilgan. Kumushni boshqa aralashmalardan tozalash uchun kupelyatsiya (suyultirish va havo yuborish orqali qo'rg'oshindan ajratish) usuli qo'llanilgan. Mis va Bronza – asosan ichki savdoda qo'llaniladigan tangalar uchun asosiy material bo'lgan. Pota Po'lati - Axsikentning eng katta siri — bu maxsus sopol idishlar (pota)da metall eritishdir. Bu usul tanga zarb qiluvchi asboblari (shtamp va bolg'alar)ning o'ta mustahkam bo'lishini ta'minlagan.

Axsikentda tanga ishlab chiqarish bir necha murakkab jarayondan iborat bo'lgan. 1. Metallni eritish va cho'zish - dastlab metall maxsus o'choqlarda eritilib, yassi tayoqchalar yoki plastinka holatiga keltirilgan. So'ngra bu plastinkalar bolg'a bilan urib, kerakli qalinlikka keltirilgan. 2. "Tayyorlama" (Zagotovka) kesish - yassi metall varag'idan maxsus qaychilar yoki qoliplar yordamida dumaloq shakldagi tanga asoslari kesib olingan. Har bir bo'lakning vazni o'sha davr standartiga (masalan, islomiy dirham standarti — 2.97 gramm atrofida) mos kelishi qat'iy nazorat qilingan. 3. Zarb qilish (Chekanka) - bu eng mas'uliyatli bosqich bo'lib, u "bolg'alash usuli" orqali amalga oshirilgan. Pastki qolip (shtamp) mustahkam taglikka o'rnatilgan va tanga asosi qolip ustiga qo'yilgan. So'ngra, ustiga yuqori qolip qo'yilib, bolg'a bilan kuchli zarba berilgan. Natijada metall har ikki tomondagi tasvir va yozuvlarni o'ziga qabul qilgan.

Axsikentning dunyoga mashhur pota po‘lati (crucible steel) tanga sanoatida inqilob qilgan. Tanga zarb qiluvchi qoliplar (shtamplar) aynan shu qattiq po‘latdan yasalgan. Qattiq po‘latdan yasalgan qoliplar minglab tangalarga bir xil sifatda muhr bosish imkonini bergan. Zarbxona asboblari davlat mulki hisoblangan va ularning o‘g‘irlanishi yoki noqonuniy nusxa olinishi qattiq jazolangan.

Sifat nazorati va qalbakilashtirishga qarshi kurashish u davr uchun dolzarb masala hisoblangan. Axsikent tangalari o‘z davrida juda yuqori nufuzga ega bo‘lgani uchun ularning sifatini himoya qilishning bir necha usullari bo‘lgan. Gurt (tanga cheti) - tangalar cheti notekis bo‘lsa ham, ularni ataylab qirqib olish (metallini o‘g‘irlash) sezilarli bo‘lishi uchun maxsus hoshiyalar tushirilgan. Kumush suvi yugurtirish. Ba’zan iqtisodiy inqiroz davrlarida mis tangalar ustiga yupqa kumush qatlami qoplangan. Bu davlat tomonidan kafolatlangan va "qadrli mis" deb atalgan.

Hozirda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tashabbuslari bilan Axsikent hududida "Axsikent" arxeologiya merosi ob’ekti va muzeyi tashkil etilgan bo‘lib, qazishma joylari ustida "ochiq osmon ostidagi muzey" formatida konservatsiya ishlari olib borilmoqda. Bu madaniy merosimizni kelesajak avlodlarga yetkazishni eng samarali yo‘llaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdulhamid Anorboyev. "Farg‘onaning Qadimgi Shaharlari va Ularning Markaziy Osiyo Tarixida Tutgan O‘rni". "Fan" nashriyoti. Toshkent – 2022.
2. I.To‘xtayev. "Tangalar Tilga Kirganda". "Fan" nashriyoti. Toshkent – 1989.

